

УДК 338
**SHAHAR QURILISHINING SAMARALI RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA
 QURILISH MATERIALLARI SANOATINING O'RNI**

Dotsent Najimov Iskander Perdebaevich
 Qoraqalpoq davlat universiteti, O'zbekiston
 Email: iskanderbek86@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy shaharlarni samarali rivojlantirish masalalari muhokama qilinadi. Shaharlar hududining oshishi bilan qurilishda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilariga nisbatan yangi so'rovlarni keltirib chiqaradigan muammolar aniqlandi. Maqolada shahar qurilishini yangi qurilish materiallari bilan ta'minlash bo'yicha bir qator takliflar asoslanadi. Ushbu takliflarni hisobga olgan holda zamonaviy shahar qurilishi samaradorligini oshirish mumkin.

Kalit so'zlar: urbanizatsiya, shahar qurilishining muammolari va xususiyatlari, qurilish materiallari ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar va progressiv tendentsiyalar

YuNESKO ma'lumotlariga ko'ra, joriy ming yillikning boshlarida shahar aholisi qishloq aholisiga tenglashgan. Ta'kidlash joizki, urbanizatsiya jarayonlari O'zbekistonda yaqqol namoyon bo'lmoqda [3]. Ular o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- mamlakatda aholi sonining o'sishi ancha yuqoriligi;
- qishloq aholisining tabiiy o'sishi shahar aholisining tug'ilish darajasidan yuqoriligi;
- qayta ishlash sanoati va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi tufayli qishloq aholisining shaharlarga intensiv ravishda ko'chishi.

Umuman olganda, mustaqillik yillarida O'zbekistonda aholisining umumiy soni 50 foizdan oshdi. Shahar aholisi soni o'sib bormoqda va bu me'yoriy hujjatlarda hisobga olingan va nazarda tutilganidek yanada o'sish tendentsiyasiga ega [1,2].

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda urbanizatsiya jarayoni, boshqa ko'plab mamlakatlarda bo'lgani kabi, asosan yirik shaharlar: poytaxt va viloyat markazlarining o'sishi hisobiga amalga oshmoqda. Shuni ham ta'kidlash kerakki, hukumat ko'rib chiqilayotgan jarayonga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladi. Bu xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga katta imtiyozlar berishda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, davlat keng ko'lami ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning noyob dasturlarini amalga oshirmoqda, jumladan, qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joylarning ipoteka asosida qurilishi muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib, bugungi kunda O'zbekistonda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari rivojlanishi va umuman, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi fonida jadal urbanizatsiya jarayoni kuzatilmogda.

Shahar aholisining o'sishi jamiyatning rivojlanish darajasini aks ettiruvchi ob'ektiv va tabiiy jarayon bo'lib, unga asosan ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishi ta'sir qiladi.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda urbanizatsiya jarayoni XX asr oxirida Meksika yoki Indoneziyada sobiq dehqonlarning shaharlarga ko'chib o'tishi singari stixiyali tavsifga ega emas. Yani, Mexiko va Jakartada bo'lganidek ko'plab muammolar, jumladan, favqulodda tiqilinchlik, havoning ifloslanishi, suv ta'minotining etishmasligi, yuqori zichlik va keskinlik, transport muammolari, yuqumli kasalliklar sonining ko'payishi, uy-joy etishmasligi va boshqa muammolar kuzatilmadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston qurilish majmuasi juda murakkab yo'lni bosib o'tdi va bu ijobiy natijalarga erishishga imkon berdi [4,5,6,8].

Urbanizatsiya shaharda qurilish hajmining oshishiga olib keladi va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun ham ob'ektiv ravishda shahar qurilishi samaradorligini

ta'minlash va shahar qurilishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muammosi yuzaga keladi.

Bu xususiyatlar quyidagilarda ifodalanadi:

- shahar er uchastka narxlarining o'sishi;
- shahar qurilish loyihalarining murakkabligida;
- qurilish sifati, davomiyligi va ayniqsa, ob'ektlarning me'moriy talablariga hamda ularni bezashga bo'lgan talablarning ortib borayotganida;
- ob'ektlarni qurish uchun ajratilgan hududlarning zichligida;
- qurilish maydonchasini tayyorlashning nisbatan murakkabligida;
- rekonstruksiya va texnik qayta jihozlash bilan bog'liq ob'ektlar ulushining oshishida.

Shaharlar ichida, ayniqsa yirik shaharlarning markaziy hududlarida er uchastkalarining yuqori narxi ko'p qavatli binolarni qurish zarurati hamda qurilish davriga nisbatan qattiqroq talablarni yuzaga keltiradi. Qavatlar sonining o'sishi va muhandislik ta'minoti darajasi tufayli ob'ektlarning murakkablashuviga hamda qurilish maydonchalarining siqilishi olib keladi.

Ko'pgina xorijiy megapolislarda qurilish maydonchalarida omborlar va boshqa vaqtinchalik bino va inshootlarni joylashtirish uchun joylarning etishmasligi, qurilishni tashkil qilishni sezilarli darajada murakkablashtirdi va qurilishning innovatsion usullari hamda yangi qurilish mashinalari va mexanizmlaridan foydalanish zarurligiga olib keldi.

Qurilish muddatlariga nisbatan qat'iy talablar ajratilgan katta mablag'larni qaytarishni tezlashtirishdan manfaatdor bo'lgan investorlar tomonidan qo'yilgan ob'ektiv shartdir.

Shahar qurilishi loyihalarining murakkabligi ularning ko'p qavatliliigi (aksariyat ob'ektlar uchun) va muhandislik kommunikatsiyalari bilan jihozlangan yuqori darajadagi uskunalaridan kelib chiqadi. Bundan tashqari, shahar ob'ektlarini qurish jarayonida yangi konstruktiv echimlar va qurilish materiallari qo'llaniladi. Shaharlarda qurilish loyihalarining murakkabligi qurilish ishtirokchilarining kengaytirilgan guruhini taqozo etadi. Xorijiy amaliyotda qurilish majmusida bir nechta yuzlab yuqori ixtisoslashgan qurilish firmalari ishtirok etadilar. Ijrochilarning aloqalari yuqori shartnoma intizomi bilan ta'minlanadi hamda belgilangan muddatlar va ish sifatini buzuvchilarga nisbatan qat'iy sanksiyalar qullaniladi.

Zamonaviy qurilishda energiya tejash va issiqlikni saqlash alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda an'anaviy materiallardan yasalgan to'suvchi konstruksiyalardan foydalanish iqtisodiy va texnik jihatdan maqsadga muvofiq emas, chunki bu qurilishda moddiy va energiya resurslari iste'molining sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, bunday konstruktiv va issiqlik izolyatsiya materiallaridan foydalanganda to'suvchi konstruksiyalar qalinligining oshishi an'anaviy bo'lmagan echimlarga nisbatan bino va inshootlarning o'z og'irligi va shunga mos ravishda seysmik yukning yanada keskin oshishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, bugungi kunda, ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish, samarali issiqlik izolyatsion materiallar va engil to'suvchi konstruksiyalardan foydalanishni, ayniqsa mahalliy materiallardan foydalangan holda to'liq rivojlantirish bo'yicha har tomonlama ilmiy-tadqiqotlar zarur. Shuni ta'kidlash kerakki, xorijiy amaliyotda hatto keskin kontinental iqlimi bo'lgan mintaqalarda ham sendvich panellar ko'rinishidagi qalinligi 130 mm bo'lgan to'suvchi konstruksiyalar qo'llaniladi va bu binoning qavatlar soniga qarab yukni 2-4 baravar kamaytirish orqali poydevor qurishda ta'sir qiladi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda shahar qurilishida yuqorida ko'rsatilgan sabablar "g'ildirakdan o'rnatish" usulini qo'llash zarurligiga olib keladi. Ushbu usul ma'lum afzalliklarga ega bo'lib, ular yuklash va tushirish sonini kamaytirish, vaqtni qisqartirish, mahsulotlarning xavfsizligini oshirish, o'rnatish uskunalaridan yanada samarali foydalanishdan iborat.

Uning yordami bilan ishlab chiqaruvchi zavod, transport va quruvchilarning sa'y-harakatlarini birlashtiradigan yagona konveyer, majburiy ritm yaratish natijasida yuzaga keladigan ta'sirga erishiladi. Bundan tashqari, mexanizmlardan foydalanishning yuqori texnik darajasini, montajchilar ish unumdorligini, qurilish vaqtini qisqartirish va qurilish xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi. Quruvchilar, transport korxonalari va subpudratchilar ishida ma'lum bir ritmni o'rnatadi.

Shahar qurilishining ijobiy misollari bir qator shaharlarda, shu jumladan Moskvada turar-joylarni (mikrorayonlarni) kompleks to'liq qurish bilan shug'ullanuvchi "Pik" loyiha-qurilish guruhining faoliyatini olish mumkin [9]. Ushbu korporatsiyaning ishlab chiqarish quvvati har yili 1,1 mln. kvadrat metr ko'p qavatli (20 va undan yuqori qavat) uy-joy qurish imkonini beradi, bitta kvartiraning o'rtacha maydoni taxminan 70m² tashkil etadi. Foydalanishga topshirilgan turar-joylarda yuqori darajadagi qulaylik va turar-joylarning me'moriy echimlari ta'minlanadi. Ishlab chiqarishda turli xil innovatsiyalar, shu jumladan qulay landshaft muhitini ta'minlaydigan rejalashtirish echimlari qo'llanilgan. Turar-joylarni keng miqyosda qurish bo'yicha ushbu tajriba chuqur o'rganishga loyiq deb hisoblaymiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qurilish materiallari sanoati jadal urbanizatsiya bilan bog'liq yangi chaqiriqlarni yanada to'liq hisobga olishlari zarur. Ishlab chiqaruvchilar va umuman qurilish materiallari sanoati qo'yidagilarga ko'proq e'tibor berishlari kerak:

zavodda tayyorlangan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish (qurilish maydonchasida ishlash muddatini qisqartirish maqsadida);

materiallar, buyumlar va konstruktsiyalarning yuqori sifatini ta'minlash;

ijodiy innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish (bu erda geosetkalar yoki konstruktiv shishadan tayyorlangan mahsulotlar ishlab chiqarish, gidrozolyatsiyani talab qilmaydigan betondan foydalanish va boshqalar misol bo'lishi mumkin);

yuqori issiqlik izolyatsiyasi xususiyatlariga ega materiallar ishlab chiqarishni kengaytirish;

pardoqlash materiallari, shuningdek, santexnika buyumlari uchun mahsulotlar assortimentini kengaytirish (narx xususiyatlari bo'yicha ushbu segment jadal o'sib bormoqda).

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy shahar qurilishi bir qator muhim xususiyatlariga ega. Ular qurilish ishlab chiqarishni sezilarli darajada murakkablashtiradi, yangi texnologiyalar, qurilish mashinalari va innovatsion qurilish materiallaridan foydalanishni talab qiladi. Albatta, ular qurilish materiallari, buyumlar va konstruktsiyalar ishlab chiqarish amaliyotida hisobga olinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 январдаги ПФ-5623-сон «Урбанизация жараёнларини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони.//www.lex.uz

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 7 июлдаги 473-сон «Тошкент шаҳрида тез қуриладиган арзон уй-жойлар қурилишини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори.//www.lex.uz

2. Урбанизация в Центральной Азии: вызовы, проблемы и перспективы. Аналитический доклад. - Центр экономических исследований . Ташкент - 2013.

3. Кальметов Б.Д. и др. Углубление экономических реформ в строительном комплексе Узбекистана. Монография.-Тошкент-2006, АКАТМ

4. Зайнутдинов Ш. Н., Нуримбетов Р. И. Ресурсная база и потенциал производство Узбекистана: использования и эффективность (региональный аспект) // Бюллетень науки и практики. Электрон. журн. 2017. №10 (23). С. 207-212. Режим доступа: <http://www.bulletennauki.com/zaynutdinov> (дата обращения 15.10.2017)

5. Давлетов И.Х. Социально-экономические проблемы развития жилищного строительства в модернизируемой экономике. –Т.: Изд-во «Fan va texnologiya», 2012. -200 с.\

6. [https //www.pik.ru](https://www.pik.ru)